

Kostyum Dizayni Va Kiyimlarni Ishlab Chiqarishda Innovatsion Loyihalash Usullarini Olib Borish Tadqiqi

Nizamova B. B, Mirzaahmedova SH. N, Abdullayeva. D. R.

Kostyum dizayni va kiyimlarni ishlab chiqarishda innovatsion loyihalash usullarini olib boorish tadqiqi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Kostyum dizayni va kiyimlarni ishlab chiqarishda innovatsion loyihalash usullarini qo'llash imkoniyatlari o'rganilgan. "Yengil sanoat texnologiyalari va jihozlari (yengil sanoat mahsulotlari texnologiyasi)" yo'nalishida pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko'nikma, malakalarini takomillashtirish va rivojlantirish. Tadqiqotda pedagog kadrlarga innovatsion loyihalash usullarida ish olib borish haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: Kostyum dizayni, Pedagog mahorati, innovatsion loyiha, zamonaviy dasturlar.

"Kostyum dizayni va kiyimlarni ishlab chiqarishda innovatsion loyihalash usullari" kursi ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogic texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan:

- ma'ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida taqdimotlar, videomateriallar va elektron-didaktik texnologiyalardan; o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so'rovlar, test so'rovlari, "SWOT-tahlil", Xulosalash» (Rezyume, Veyer), "Tushunchalar tahlili", "Brifing" metodi va boshqa interaktiv ta'lim usullarini qo'llash nazarda tutiladi. Modul mazmuni o'quv rejadagi "Jahon charm-mo'yna, poyabzal sanoatida global muammolar va yechimlar" o'quv moduli bilan uzviy bog'langan holda pedagoglarning shaxsiy axborot maydonini shakllantirish, kengaytirish va kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini orttirishga xizmat qiladi. Modul kostyum dizayni va kiyimlarni ishlab chiqarishda innovatsion loyihalash usullari va ulardan ta'lim tizimida foydalanish orqali ta'limni samarali tashkil etishga va sifatini tizimli orttirishga yordam beradi.

"Kostyum dizayni va kiyimlarni ishlab chiqarishda innovatsion loyihalash usullari" modulida ko'chma mashg'ulotlar "O'zto'qimachilik sanoati" uyushmasi tarkibidagi hamda o'rta va kichik quvvatga ega bo'lgan korxonalarining texnologik jarayonini o'rganish maqsadida zamonaviy tikuvchilik jihozlari bilan jihozlangan sohaning yetakchi korxonalarida olib boriladi.

O'qitish shakllari: Mazkur modul bo'yicha quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar (ma'lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko'rilayotgan loyiha yechimlari bo'yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo'yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

Texnologiyaning maqsadi: Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o'zlashtirish, xulosalash, shuningdek,

mustaqil ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma'ruza mashg'ulotlarida, mustahkamlashda, o'tilgan mavzuni so'rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg'ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

- ✓ qatnashchilarga mavzuga oid bo'lgan yakuniy xulosa yoki g'oya taklif etiladi;
- ✓ har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog'ozlarni tarqatiladi:

F • fikringizni bayon eting

S • fikringizni bayoniga sabab ko'rsating

M • ko'rsatgan sababingizni isbotlab misol keltiring

U • fikringizni umumlashtiring

- ✓ ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiy tartibda taqdimot qilinadi.

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o'zlashtirilishiga asos bo'ladi.

Namuna:

Fikr: "To'qimachilik va yengil sanoat mashinasozligida innovatsion texnika va texnologiyalar".

Topshiriq: Mazkur fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU orqali tahlil qiling.

Metodning maqsadi:

Bu metod murakkab, ko'ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o'rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo'yicha o'rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o'quvchilarning mustaqil g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. "Xulosalash" metodidan ma'ruza mashg'ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg'ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

Metodni amalga oshirish tartibi:

1. trener-o'qituvchi ishtirokchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi;
2. trening maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirgach, har bir guruhga umumiy muammoni tahlil qilinishi zarur bo'lgan qismlari tushirilgan tarqatma materiallarni tarqatadi;
3. har bir guruh o'ziga berilgan muammoni atroflicha tahlil qilib, o'z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo'yicha tarqatmaga yozma bayon qiladi;
4. navbatdagi bosqichda barcha guruhlar o'z taqdimotlarini o'tkazadilar.

Shundan so'ng, trener tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruriy axborotl bilan to'ldiriladi va mavzu yakunlanadi

Xulosa: Ushbu maqolada Kostyum dizayni va kiyimlarni ishlab chiqarishda innovatsion loyihalash usullarini qo'llash imkoniyatlari o'rganilgan. Tadqiqot davomida pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko'nikma, malakalarini takomillashtirish va rivojlantirish. Xulosa qilib bu metodidan ma'ruza mashg'ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg'ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin. Metodni Tadqiqotda pedagog kadrlarga innovatsion loyihalash usullarida ish olib borish haqida yoritilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Oliy ta'limning meyoriy - huquqiy hujjatlari to'plami. -T., 2013.
2. Ўринов В. Ўзбекистон Республикаси олий таълим муассасаларида ECTS кредит-модуль тизими: асосий тушунчалар ва қоидалар. Ўқув қўлланма. Нью Брансвик Университети, 2020.
3. The European Higher Education Area. - Joint Declaration of the Ministers of Education. - Bologna, 1999, 19 June.
4. Shaping our Own Future in the European Higher Education Area // Convention of European Higher Education Institutions. - Salamanca, 2001, 29-30 march. Kostyum dizayni va kiyimlarni ishlab chiqarishda innovatsion loyihalash usullari
5. Виртуальная реальность как новая исследовательская и образовательная среда. Церфуз Д.н. и др. // ЖУРНАЛ Научно-аналитический журнал «Вестник Санкт-Петербургского университета Государственной противопожарной службы МЧС России», 2015. – с.185-197.
6. Ибраймов А.Е. Масофавий ўқитишнинг дидактик тизими. Методик қўлланма. – Т.: “Lesson press”, 2020. -112 б